Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING POETIK MAHORATINI NAMOYON QILISHDA BADIIY TIL IMKONIYATLARI

Xabibulloxon Muzaffarxon o'g'li Madazimov*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ madazimovxabibullo@gmail.com

ANNOTATSIYA

mazkur maqolada Shukur Xolmirzayevning "Jarga uchgan odam" hikoyasi misolida yozuvchining poetik mahorati va uni yuzaga chiqarishda badiiy tilning imkoniyatlari tahlil qilingan. Hikoyada qo'llangan peyzaj, portret, dialog, psixologik tasvir, metafora, epitet, o'xshatish, jonlantrish asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar

Poetik mahorat, badiiy til, peyzaj, metafora, epitet, o'xshatish, jonlantrish, psixologik.

DOI: 10.5281/zenodo.21835499

KIRISH

Badiiy adabiyotning estetik qimmati, avvalo, yozuvchining tildan foydalanish mahorati bilan belgilanadi. Har qanday badiiy asarda til faqat fikrni ifodalash vositasi emas, balki muallifning estetik qarashlari, obrazlar tizimi va individual uslubini namoyon etuvchi asosiy poetik omil hisoblanadi. So'zning obrazlilik kasb etishi, uning hissiy-ekspressiv imkoniyatlarining yuzaga chiqishi va matn tarkibida yangi badiiy ma'no hosil qilishi ijodkorning poetik mahoratini belgilaydi.

Badiiy tilning estetik qimmati uning hissiy-ekspressiv imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shu jihatdan taniqli adabiyotshunos H.Umurov: "Badiiy nutq uslubining hissiyotliligi va ekspressivligi, metafora, mazmunli xilma-xilligi yozuvchining qo'llagan badiiy mahoratiga ham bog'liqdir", – deb ta'kidlaydilar [1]. Ushbu nazariy qarash Shukur Xolmirzayev ijodida to'la o'z tasdig'ini topadi. Adib voqelikni oddiy bayon etmaydi, balki metofara, epitet, o'xshatish, jonlantrish, badiiy detal, dialog va psixologik tasvir vositalari orqali estetik mazmunga aylantiradi.

Atoqli adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov ham badiiy tilning adabiyot taraqqiyotidagi o'rniga alohida to'xtalib, shunday yozadi: "Tilga bepisand munosabat uch jihatdan katta zarar keltirishi mumkin: birinchidan, oxir pirovardida, umuman adabiy tilimizning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; ikkinchidan, adabiyotimizning badiiy saviyasini tushurib yuboradi; uchinchidan, kitobxonning estetik didiga yomon ta'sir ko'rsatadi"[2]. Olimning ushbu fikri badiiy tilning nafaqat estetik, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shukur Xolmirzayev ijodining muhim xususiyatlaridan biri tabiatning inson hayotidan ajratmagan holda tasvirlashdir. Adib asarlarida tabiat voqealar sodir bo'ladigan oddiy makon emas, balki qahramon ruhiyati, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini ochuvchi poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan "Jarga uchgan odam" hikoyasi ijodkorning tabiat poetikasini yorqin aks ettiruvchi asarlaridan biridir. Hikoyaning dastlabki sahifalaridanoq bosh qahramon Islom yashab ulg'aygan makon keng peyzaj tasviri orqali gavdalantiriladi: "Islom tug'ilgan uy eski, vassalari qorayib ketgan, bitta keng derazasi ellik qadam naridagi qishloqning daraxt-

larga burkangan tomoniga ochilar edi. Uyning ustida Boysuntog‘ning musaffo osmoni osilib turar, uning orqa tomonida to‘lqinsimon sarg‘ish adirlar tog‘ tarafga emaklab ketgan adirlar ortida esa chag‘ir toshli qirlar va ular orqasida mol podalariga o‘xshab archazor qoplagan tog‘ ko‘rinar edi”[3.131]. Mazkur peyzaj yozuvchining tabiatni kuzatish madaniyati va badiiy tafakkurning mahsulidir. Tasvirda “musaffo osmon”. “to‘lqinsimon sarg‘ish adirlar”, “Chag‘ir toshli qirlar” kabi epitetlar Boysun tabiatining rang-barangligini, uning estetik jozibasini ifodalashga xizmat qiladi. Har bir sifat tabiat manzarasini jonlantrish bilan birga, qahramon yashayotgan muhitning ruhiy-psixologik xususiyatlarini ham belgilaydi. Parchadagi “Adirlar tog‘ tomonga emaklab ketgan” ifodasi jonlantirish san’atining yorqin namunasidir. Muallif jonsiz tabiatga tirik mavjudodga xos harakatni yuklash orqali makonni dinamik obrazga aylantiradi. Bu usul peyzajni oddiy tavsif darajasidan estetik hodisaga ko‘taradi. Shuningdek, “mol podalariga o‘xshab archazor qoplagan tog‘ ” o‘xshatishi milliy tafakkur mahsuli bo‘lib, tog‘ manzarasini xalqning kundalik hayoti bilan bog‘laydi. Natijada tasvir milliy ruh hamda hayotiylikni o‘zida kasb etadi. Hikoya bosh qahramoni tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi: “Darvoqe, Islom shimoldagi tog‘lar, o‘rmonlar, undagi hayvonotu parrandalar zotini ham yaxshi bilardi. U miltiq ko‘tarib yursa-da, kamdan-kam o‘q bo‘shatadigan bu g‘alati ovchini tog‘ ham, sokin o‘rmonlar ham, yovvoyi hayvonlaru beozor parrandalar ham bilishar edi”[3.131]. Mazkur parchada Sh.Xolmirzayev jonlantirish usulidan foydalanib, tog‘, o‘rmon, hayvonlar va parrandalarni Islomni taniydigan tirik mavjudod sifatida tasvirlaydi. Tabiat va inson o‘rtasidagi bunday uyg‘unlik ijodkor poetikasining muhim belgilaridan biridir. Asarda Islom oddiy ovchi emas, balki tabiat qonunlarini chuqur anglagan inson sifatida gavdalanadi. Bu yerda “kamdan-kam o‘q bo‘shatadigan ovchi” detali ham alohida badiiy vazifani bajaradi. Birgini ushbu detal orqali yozuvchi qahramonning insonparvarligini, tabiatga mehr-muhabbati va ekologik tafakkurini ochib beradi. Hikoya davomida Islomning tabiat bilan ma’naviy yaqinligi yanada chuqurlashadi: “U o‘zidan mamnun bo‘lib ketdi asta-sekin o‘zini atrofdagi tabiatning ilk oshig‘, uning jonkuyar himoyachisi, uning ilk targ‘ibotchisidek his qila boshladi”[3.133]. Mazkur jumla hikoyaning markazlaridan biri hisoblanadi. “tabiatning ilk oshig‘i”, “jonkuyar himoyachisi”, “ilk targ‘ibotchisi” kabi metaforik birikmalar Islomning ruhiy kamolotini bosqichma-bosqich ifodalaydi. Ushbu sintaktik parallelizm va gradatsiya qahramonnig tabiatga bo‘lgan munosabati oddiy qiziqishdan ma’naviy e’tiqod darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi keyingi voqealarda ham tabiatni qahramon xarakterini ochuvchi vosita sifatida tasvirlaydi. Masalan, Islom va rejissiyor tog‘ sari yo‘l olgan sahnalarda muallif tabiatning go‘zalligini dinamik tasvirlar orqali ifodalaydi: “Ular cho‘qillarga chiqib hilollarning sayrashini ham kuzatishdi, tulkilar ini og‘zida olov yoqib, ularni qochirishdi, bo‘ri inlari og‘zida papiros chekishdi, qoya o‘rkachidagi burgut bolalariga do‘pillari pastga tushgudek bo‘lib qarashdi”[3.134]. Mazkur parchada (chiqib, kuzatishdi, yoqib, chekishdi, qarashdi) so‘zlarini ketma-ket qo‘llanishi matnga ritm va dinamizm bag‘ishlaydi. Qoya “O‘rkach” deb atalishi metaforik tasvirni yuzaga keltirsa, “do‘ppilari pastga tushgudek” iborasi mubolag‘a vositasida manzaraning ulug‘vorligini kuchaytiradi.

Hikoyaning eng ta’sirchan sahnalaridan biri Islom va rejissiyorning ayiq inini kuzatish epizodidir. Muallif voqeani tashqi tasvir emas, balki tabiatning tabiiy ritmiga mos ravishda rivojlantiradi: “Quyosh ufqqa yonboshladi, daraxtlarning soyasi kunchiqarga qarab cho‘zildi. Olisdagi, pastlikdagi qorong‘i tusha boshlagan qishloqda chiroqlar yondi [3.136]. Bu peyzaj voqeaning dramatik tus olishi oldidan ruhiy fon yaratadi. “Quyosh ufqqa yonboshladi” personifikatsiyasi tabiatni jonlantirsa, yorug‘lik va qorong‘ulik qarama-qarshiligi fojiaga ishora qiluvchi ramziy ma’no kasb etadi. Shu tariqa tabiat manzarasi voqealarning tabiiy foniga emas, balki estetik markaziga aylanadi. “Nihoyat, g‘ordan mo‘ralab sariq, baroq junli maxluq chiqdi… So‘ng uning orasidan bir juft choynakdek-choynakdek ayiqchalar ergashib chiqdi…”[3.136]. Ushbu parchada “choynakdek-choynakdek” takrori va o‘xshatishi ayiq bolalarining mittiligi hamda beozorligini ta’kidlaydi. Takror poetik ritm hosil qilib, tasvirning emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

XULOSA

Shukur Xolmirzayevning “Jarga uchgan odam” hikoyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi poetik mahoratining asosini badiiy til vositalaridan o‘rinli va maqsadli foydalanish tashkil etadi. Asarda til voqealarni bayon etish vositasigina emas, balki inson ruhiyati, tabiat falsafasi hamda muallif estetik idealini ifodalovchi

poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O‘qituvchi.2002.B.5-8.
2. Sharofiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi. “Haqiqatga sadoqat”. Toshkent: Adabiyot va san’at .1998.B.289.
3. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar.Toshkent.”Sharq”nashriyoti-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.